NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №10 (748), 2023-yil 31-may

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Касаба уюшмалари ҳаётидан

КУН ТАРТИБИДА МУҲИМ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ

Мамлакатимизнинг янгиланган Конституциясида инсон қадрини улуғлаш, унинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, ижтимоий жиҳатдан ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш устувор йўналишлар сифатида белгилаб берилган. “НКМК” акциядорлик жамияти касаба уюшмаси ходимларининг яқинда бўлиб ўтган конференцияси кун тартибида ҳам ана шу масалаларга алоҳида эътибор қаратилди.

Конференцияда “НКМК” АЖ Бошқарув раиси – Бош директор Қ.Санақулов ва комбинат ходимлари касаба уюшмаси Кенгаши раиси И.Раҳматовларнинг 2022 йилда Жамоа шартномаси мажбуриятларининг бажарилиши юзасидан ҳисоботлари тингланди. Бош директорнинг маърузасида таъкидланганидек, 2017-2022 йилларда комбинатда умумий қиймати 1,9 миллиард доллар бўлган 19 та йирик инвестицион лойиҳа ишга туширилиб, қарийб 14 мингта янги иш ўрни яратилди. Бунинг ҳисобига корхонада олтин ишлаб чиқариш ҳажми 2017 йилга нисбатан 21 фоизга, кумуш ишлаб чиқариш ҳажми 46 фоизга оширилди.

Комбинатда 2022 йилда 56,4 триллион сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилиб, ўсиш суръати ўтган йилга нисбатан 106,2 фоиз бўлиши таъминланди ва 15 триллион сўмдан ортиқ соф фойда олинди. Давлат бюджетига 32 триллион сўмдан ортиқ тўловлар амалга оширилди. Инвестиция дастури доирасида 486 миллион доллар маблағ ўзлаштирилиб, умумий қиймати 742 миллион доллар бўлган 3 та йирик лойиҳа фойдаланишга топширилди ва 2,1 мингта янги иш ўрни яратилди.

Жамоа шартномаси ишчи-ходимлар, уларнинг оиласи, фахрийлар манфаати ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ижтимоий қўллаб-қувватлашда асосий ҳужжат ҳисобланади. Шу боисдан корхона маъмурияти ўз фаолиятида Жамоа шартномасида кўзда тутилган барча мажбуриятларнинг бажарилишига қатъий амал қилиб келмоқда. Қ.Санақулов бу борада 2022 йилда амалга оширилган энг муҳим йўналишларга қисқача тўхталиб ўтди.

2022 йилда кўрилган чора-тадбирларга қарамай бахтсиз ҳодисалар рўй берди. Кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида структура ўзгартирилиб, бевосита ушбу ишга масъул аввалги бўлимга бош бошқарма мақоми берилди. Бошқарма малакали мутахассислар билан таъминланди, бунга бевосита масъул ходимлар ўқитилиши ташкил этилди. Алоҳида Ишчи гуруҳ тузилиб, бўлинмаларда меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлигига риоя этиш ҳолати ўрганилиб, ҳафтанинг жума куни ўтаётган селектор йиғилишида таҳлилий ва танқидий муҳокама этилмоқда.

2022 йилда комбинат ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш касаба уюшмаси Кенгаши билан келишилган ҳолда тасдиқланган тариф ставкалари бўйича 1 ноябрдан ўртача 15 фоизга оширилди. Иш берувчи молиявий-иқтисодий фаолият натижаларидан қатъий назар кафолатланган тўловлар ва қўшимча тўловлар бўйича ўз мажбуриятларини бажармоқда. 2022 йил давомида амалдаги мукофотлаш қоидалари бўйича жорий этилган мукофотлар тўловига 1 112,4 миллиард сўм сарфланди, иш стажи учун тўланадиган устама учун 997,7 миллиард сўм тўланди.

2022 йилда санаторий-курорт тартибида даволашни ташкил этиш учун умумий қиймати 31,6 миллиард сўмлик 13 546 та йўлланма сотиб олинди. Комбинат ва Жамғарма ўртасида овқатлантириш хизматлари кўрсатиш бўйича умумий қиймати 213,6 миллиард сўмлик шартнома имзоланиб, амалга оширилди.

Айни пайтда Инвестиция дастури доирасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Нурота тумани ҳудудида қиймати 274,7 миллион доллар бўлган янги гидрометаллургия заводи барпо этиляпти. Яқин кунларда 6-гидрометаллургия заводининг биринчи босқичи фойдаланишга топширилади. Завод тўлиқ қувват билан ишга тушгандан сўнг йилига 4 миллион тонна рудани қайта ишлайди. Май ойи ўрталарида “Турбай” ва “Бўзтов” конларини гидрометаллургия заводлари билан боғлайдиган 52,2 километрлик янги темир йўл линияси қуриб битказилди. Ҳозирги кунда Қизилтепа туманида жойлашган “Тўдакўл” дам олиш базаси ҳудудида 100 ўринли Халқаро шахмат мактаби қурилиши ниҳоясига етказилмоқда. Зарафшон шаҳрида 504 ўринли ихтисослаштирилган мактаб-интернати барпо этиляпти.

Давоми 2-бетда

■ Акс-садо

“АЙҚУЛАШ” ОҲАНГЛАРИ

Қизилқум кенгликлари узра янгради

Ўзбекистон Республикаси кончилик ва металлургия саноати ходимларининг анъанавий касб байрами Навоий кон-металлургия комбинати бўлинмаларида зўр шоду хуррамлик билан кенг нишонланди. Ахир, шундай бўлиши ҳам керакда! Зеро, тинч, осуда юртга байраму шодиёналар ярашади, деган пурмаъно сўзлар жуда топиб айтилган. Ҳар қандай мураккабликларга қарамасдан йилнинг тўрт фаслида бор имкониятлари, билим ва тажрибаларини зиммаларидаги вазифаларини бажариш йўлида сафарбар этиб, қувончли ютуқларга эришаётган кончилар ва металлурглар, шунингдек улкан корхонада фаолият кўрсатаётган бошқа касб эгаларининг заҳматли меҳнати эътибор ва эътирофга муносибдир.

“Навоий кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамияти, “Навоийуран” давлат корхонаси, “Навоий кон-металлургия комбинати жамғармаси” давлат муассасаси маъмуриятлари ва касаба уюшма Кенгаши Раёсатининг қўшма қарорига мувофиқ кончилик ва металлургия саноати ходимлари куни-касб байрами шодиёналари нишонланган 16-22 май кунлари “Айқулаш” Қорақалпоқ давлат миллий фольклор ансамбли ва Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Тошпўлат Маткаримов ҳамда вилоят маданият бошқармаси санъаткорлари комбинат бўлинмалари фаолият кўрсатаётган Нуробод шаҳридаги “Нуробод” маданият уйи, Маржонбулоқ шаҳридаги “Маржонбулоқ”, Зармитан кўрғонидаги “Кончи” маданият ва спорт мажмуаси, Навоий шаҳридаги “Сўғдиёна”, Учқудуқ шаҳридаги “Лочин”, Зарафшон шаҳридаги “Қизилқум” ва Конимех тумани марказий ўйингоҳларида катта концерт дастурини намойиш этиб, қўшиқ ва рақссевар инсонларга кўтаринки кайфият, маданий ҳордиқ онларини бағишладилар. Айниқса, “Айқулаш” ансамбли иштирокчиларининг қўшиқлари, жозибали рақслари ўзбек ва қорақалпоқ халқларининг асрлар синовидан ўтган дўстлигининг яна бир ёрқин намойишига айланди. Қорақалпоғистонлик истеъдодли санъаткорларнинг комбинат шаҳарлари ўйингоҳлари ва “Фарҳод” маданият саройи саҳнасидаги чиқишлари томошабинларнинг давомли олқишлари билан кутиб олинди.

“Айқулаш” ансамбли ижодий жамоасининг фаолияти ҳақида қисқача маълумот бериб ўтиш мавриди келди. XX асрнинг иккинчи ярмида Қорақалпоқ миллий ашула ва рақс санъатига асос солган, Қорақалпоғистонда хореография санъатининг тамал тошини қўйган ансамбль жамоаси бетакрор, ранг-баранг репертуари билан қорақалпоқ халқ санъатини дунёга танитиб келмоқда. Ўтган аср эллигинчи йилларининг иккинчи ярмида Қорақалпоғистон давлат мусиқали театри ҳузурида “Айқулаш” рақс ансамбли ташкил этилади. Орадан бир йил ўтгач эса давлат филармонияси таркибига ўтказилади. Ансамблнинг репертуаридан доимий ўрин олган ҳамда халқ ижодининг энг яхши намуналаридан бўлиб қолган биринчи рақсларни Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти, Бердақ номидаги Республика давлат мукофоти лауреати Лиза хоним Петросова саҳналаштирган эди. Жамоанинг кўп йиллик ижодий фаолияти туфайли республикада Салима Сарсенова, Зарафшон Нуратдинова, Султан Кунназаров, Гулчеҳра Аманбаева, Рахим Мурадов, Мурат Бекмуратов, Султан Дуйсенбаев, Муҳаббат Бекчанова каби қатор истеъдодли санъаткорлар етишиб чиқдилар. Ансамблнинг дунё миқёсида ном қозонишида унинг раҳбари, бош балетмейстери, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикаси халқ артисти, Давлат мукофоти лауреати, Татаристонда хизмат кўрсатган маданият арбоби, режиссёр ва биринчи қорақалпоқ балетмейстери Пўлат Мадреймовнинг хизматлари беқиёсдир.

1974 йилда “Айқулаш” ансамбли жамоаси Қозоғистонда, 1981 йилда Тожикистонда ўтган Ўзбекистон маданияти ва адабиёти кунлари иштирокчиси бўлди. Ансамбль бой анъаналарига эга. Унинг шаклланиши ва ижодий камолотига Л.Петросова, К.Абдиреймов, А.Тарихов, О.Алламбергенова, Б.Надиров, И.Хожаметовлар ўзларининг юксак ижрочилик маҳоратлари билан муносиб ҳисса қўшдилар. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллиги эълон қилингандан буён ансамбль Тошкент шаҳрида ўтказилаётган Мустақиллик, Наврўз умуммиллий байрамларида жозибали чиқишлари билан иштирок этиб келмоқда. 2015 йилда “Айқулаш” халқ фольклор ансамбли мусиқачилари Самарқандда ўтказилган “Шарқ тароналари” фестивалида уч қисмдан иборат “Қорақалпоқ наволари” композицияси учун ЮНЕСКОнинг иккинчи даражали махсус дипломи билан тақдирландилар.

“Айқулаш” Қорақалпоқ давлат миллий фольклор ансамбли ижодий жамоаси Навоий ва Учқудуқ, Зарафшон ва Маржонбулоқ, Заркент, Нуробод ва Конимех шаҳар ва туманлар аҳолисига сидқидилдан маданий хизмат кўрсатди. Ширазе Турсинбаев, Ильяс Балтабаев, Марианна Шагиева, Султан Кеулимжаев, “Шуҳрат” медали соҳиби Махсет Хўжасов, Дамир Турениязов, Қорақалпоғистоен Республикасида хизмат кўрсатган артист Бегис Темирбаев, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти Гулхатча Айимбетова ҳамда ансамблнинг раққос йигит-қизлари ижро этган дилтортар қўшиқлар, жозибали рақслар томошабинлар ёдида узоқ вақт сақланиб қолишига шубҳа йўқ. Ансамбль эртага “Айдаркўл” дам олиш масканида хайрия концерт дастурини намойиш этади.

Н.ХАЙРИДДИНОВ.
В.ЯКОВЛЕВ олган сурат.

■ Бугуннинг гапи

БАРҚАРОР “ЯШИЛ ЭНЕРГИЯ” ИСТИҚБОЛЛАРИ

Янги Ўзбекистонда узоқ муддатли ривожланиш стратегиясини амалга ошириш давомида барча соҳаларда улкан ислоҳотлар олиб борилмоқда. Сўнгги йилларда республикамизнинг табиий уран қазиб олиш ва қайта ишлаш саноати тармоғи ҳам тараққиётнинг янги босқичига қадам қўйди. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан замонавий корпоратив бошқарув усулларини жорий этиш, бозор механизмларига ўтиш, рақобатбардошликни ошириш, мавжуд ишлаб чиқариш қувватларини кенгайтириш, янги истиқболли конларни ўзлаштириш мақсадида 2020 йилнинг 6 март санасида қабул қилинган “Навоий кон-металлургия комбинати давлат корхонасини ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида табиий уран ва нодир металларни қазиб олиш ва қайта ишлашга ихтисослашган “Навоийуран” давлат корхонаси ташкил этилди.

Жаҳон ядро ассоциациясининг сўнгги маълумотларига кўра, Ўзбекистон уран қазиб олиш бўйича етакчи давлатлардан бири бўлиб, захиралари бўйича дунёда 11-ўринни, уран қазиб олиш бўйича 5-ўринни эгаллайди. 2022 йил январь ойидан ўз фаолиятини бошлаган “Навоийуран” давлат корхонаси мамлакатимизда уранни қазиб олиш ва қайта ишлаш бўйича ягона корхона ҳисобланади.

Ҳозирги кунда “Навоийуран” давлат корхонаси барқарор ва жадал ривожланаётган субъект бўлиб, ўз маҳсулотини 100 фоиз экспортга йўналтирмоқда. Унинг асосий ишлаб чиқариш маҳсулоти табиий уран бўлиб, “Зафаробод” кон бошқармаси, “Учқудуқ” ва “Нуробод” ишлаб чиқариш майдонларида жойлашган 20 та табиий уран кони ҳамда бу конларни ўзида бирлаштирган 6 та геотехнологик конлар фаолият олиб бормоқда. Шунингдек, уран ишлаб чиқариш заводи, 3 та Геология-қидирув экспедицияси, Геология-қидирув партияси, Бурғилаш ускуналарининг эҳтиёт қисмларини ишлаб чиқариш участкаси, Таъмирлаш-механика цехларида соҳа фидойилари кунни тунга улаб меҳнат қилишмоқда.

Корхонада уран маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнида сарфланадиган асосий кимёвий маҳсулотлардан бири бўлган сульфат кислотасини ишлаб чиқарувчи ҳамда технологик жараёнида кенг фойдаланиладиган полиэтилен қувурлар ва эҳтиёт қисмларни ишлаб чиқарувчи цехлар ҳам мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли қарори билан белгиланган экспорт кўрсаткичларини бажариш учун 2023-2026 йиллар давомида ишлаб чиқарилиши режалаштирилган табиий уран ҳажмлари Японияниг “Itochu” ва “Marubeni” компанияси, Канаданинг “Cameco”, Ҳиндистоннинг “Атом энергетикаси департаменти”га ҳамда Жанубий Кореянинг “KHNP” компаниясига экспорт қилиниши бўйича тегишли шартномалар имзоланган.

Таъкидлаш жоиз, корхона бугун халқаро майдонда тобора ўз ўрнини эгаллаб, нуфузи ортиб бормоқда. Айниқса, 2022 йилнинг 19 май куни Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида ўтказилган йиғилишда геология соҳасини янада ривожлантириш, фойдали қазилмалар захиралари ва ер ости сув ресурсларини кўпайтиришга қаратилган лойиҳалар тақдимоти билан танишув жараёнида давлатимиз раҳбарияти томонидан соҳага юқори ишонч билдирилди. Ушбу йиғилишда давлатимиз раҳбари томонидан корхонанинг кейинги фаолияти учун жуда муҳим бўлган қатор вазифа ва йўналишлар белгилаб берилдики, бунинг пировард мақсади корхона ишлаб чиқариш ҳажмини икки баробарга оширишдан иборат.

2022 йил 14 июлда Ўзбекистон Республикаси Президентининг мазкур топшириқ ва вазифаларни бажариш механизмини белгилаб берувчи “2022-2030 йилларда “Навоийуран” давлат корхонасида уранни қазиб олиш, қайта ишлаш ҳажмларини ошириш ҳамда уни трансформация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-319-сонли қарори қабул қилинди. Қарорда уран хомашё базасини барқарор ривожлантириш, уни қазиб чиқариш ва қайта ишлаш ҳажмларини кўпайтириш, соҳани трансформация қилиш ҳамда унга инвестицияларни ва замонавий технологияларни жалб этиш, пировардида геология ўрганишларидан чуқур қайта ишланган маҳсулот олишгача бўлган жараённи қамраб оладиган замонавий корхона фаолиятини йўлга қўйиш бўйича аниқ ва мақсадли вазифалар белгилаб берилди. 2030 йилга бориб уран минерал хомашёси базасини 100 минг тоннага етказиш, янги конларни очишни таъминлашга йўналтирилган геологияқидирув ва илмий-тадқиқот ишларини ўтказиш, уран хомашёсини қазиб олиш ва қайта ишлаб чиқариш ҳажмини икки бараварга ошириш белгиланган. Бунинг натижасида табиий уран маҳсулотини 7100 тоннага ва аммоний перренатини 3700 килограммга етказиш вазифаси қўйилди. Корхона томонидан уран қазиб олиш ва қайта ишлашни кўпайтириш мақсадида 500 миллион долларга яқин инвестиция лойиҳалари амалга оширилади.

Давоми 3-бетда

■ Касаба уюшмалари ҳаётидан

КУН ТАРТИБИДА МУҲИМ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ

Охири. Бошланиши 1-бетда

“Давлатимиз раҳбари томонидан тасдиқланган комбинатни 2026 йилгача ривожлантириш дастури, Инвестиция дастури ва бошқа дастурларда белгиланган ҳар бир лойиҳани ўз вақтида амалга оширишимиз зарур. Комбинатда меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги бўйича комплекс ишлар олиб борилмоқда. Бу тартиб бундан кейин янада кучайтирилади. Ушбу масалага алоқадор ҳар бир масъуллар масъулияти ва жавобгарлиги янада оширилади. Чунки, ҳамкасбларимиз ҳаётини асраш биз учун муҳимдир.

Бундан кейин ҳам Жамоа шартномасида белгиланган мажбуриятларни амалга ошириб боришни изчил давом эттирамиз. Чунки, ишчи-ходимлар, уларнинг оиласи, фарзандлари, фахрийларимиз ҳақида қайғуриш, муаммоларни ҳал этиш бизнинг биринчи даражали вазифамиздир”, - деди Қ.Санақулов маърузаси сўнгида.

НКМК ходимлари касаба уюшма Кенгаши раиси И.Раҳматов ҳисобот маърузасида Жамоа шартномасида ижтимоий соҳада белгиланган мажбуриятларнинг бажарилиши ҳамда Жамоа шартномасини Ўзбекистон Республикасида янги таҳрирда кучга киритилган Меҳнат кодексига мувофиқлаштириш масалаларига эътибор қаратди. Комбинат бўлинмаларида бўлиб ўтган конференцияларда Жамоа шартномасининг 2022 йилда бажарилиши ва акциядорлик жамиятининг 2022-2024 йилларга мўлжалланган Жамоа шартномасига ўзгартиришлар киритиш юзасидан таклифлар муҳокама қилинди. Бўлинмалардан Марказий комиссияга кўплаб таклифлар келиб тушди ва улар комиссия томонидан ўрганиб чиқилди.

Комбинатда меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича Жамоа шартномасида кўзда тутилган бандлар маъмурият томонидан тўлиқ молиялаштирилиб, ўз вақтида бажарилмоқда. Ўтган йили ана шу мақсадларга 231,6 миллиард сўм сарфланди. Ишчи-ходимларни махсус кийим-бош, пойабзал ва бошқа шахсий ҳимоя воситалари билан таъминлаш учун 591,1 миллиард сўм, даволаш-профилактика, озиқ-овқат, сут ва шарбат учун 167,2 миллиард сўм, ташкилий чора-тадбирлар, санитария ва гигиена воситалари ҳамда меҳнат муҳофазаси бўйича ўқитишлар учун 5,1 миллиард сўм харажат қилинди.

Тиббий-санитария бўлими ва Тиббий-санитария қисмлари томонидан 2022 йилнинг 31 декабрь ҳолатида 115 минг 200 нафардан ортиқ ишчи-хизматчилар, уларнинг вояга етмаган фарзандлари ва комбинат пенсионерларига хизмат кўрсатилди. Даволаш-профилактика муассасалари учун 7 816,4 миллион сўмлик дори-дармон воситалари харид қилинди. Ёзги таътил мавсумида “НКМК жамғармаси” давлат муассасасининг 13 та болалар соғломлаштириш оромгоҳларида акциядорлик жамияти ва жамғарма ишчи-хизматчилари, комбинат пенсионерлари, шунингдек ижтимоий ҳимояга муҳтож, кам таъминланган оилаларнинг 11 минг нафардан кўпроқ фарзандлари дам олиши учун йўлланмалар ажратилди.

Комбинатда спорт-соғломлаштириш тадбирларини ташкил этиш учун барча шарт-шароитлар муҳайё этилган бўлиб, 12 минг нафар ишчи-хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари спорт билан мунтазам шуғулланишмоқда. Касаба уюшмалари бўлинмаларда ишчи-хизматчиларнинг маиший шароитларини яхшилаш мақсадида 2022 йилда 2,6 миллиард сўм маблағ сарфлади. “Бирдамлик” фонди томонидан 2022 йилда 549 нафар кам таъминланган, ёлғиз пенсионерлар ва ижтимоий ҳимояга муҳтож ишчи-ходимларга 1 миллиард 115 миллион сўмдан ортиқ миқдорда моддий ёрдам кўрсатилди.

Конференцияда “НКМК” АЖ бош директорининг ходимлар ва маъмурий масалалар бўйича ўринбосари Қ.Тапаровнинг “2022 йил учун Жамоа шартномаси мажбуриятларининг бажарилишини икки томонлама текшириш далолатномаси, 2022-2024 йилларга мўлжалланган Жамоа шартномасига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги маърузаси, Меҳнат муҳофазаси, саноат хавфсизлиги ва экология бўйича директори А.Черданцевнинг “Навоий кон-металлургия комбинати акциядорлик жамиятида 2022 йилда меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси бўйича келишувнинг бажарилиши ва 2023 йил учун меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисидаги келишувни қабул қилиш тўғрисида”ги ахбороти ҳам тингланди.

“Навоий кон-металлургия комбинати” АЖда 2022 йилда Жамоа шартномасининг бажарилиши юзасидан музокараларда қатнашган Марказий кон бошқармаси 2-гидрометаллургия заводи НЎА ва А участкаси бошлиғи У.Мирзаев, Шимолий кон бошқармаси кон жиҳозларини таъмирлаш цехи бошлиғи ўринбосари В.Рудзявичус, Жанубий кон бошқармаси бош муҳандисининг кон ишлари бўйича ўринбосари О.Фармонов, ГҚЭ бошлиғи Т.Бобоновлар ҳисоботларни қониқарли деб баҳолаш таклифини билдирдилар.

Конференцияда ҳисобот маърузаларини маълумот учун қабул қилиш, “НКМК” АЖ Жамоа шартномасининг 2022 йилда бажарилиши юзасидан икки томонлама текшириш далолатномасини, НКМК Марказий комиссиясининг 2022 йилда Жамоа шартномаси мажбуриятларининг бажарилиши ва 2022-2024 йилларга мўлжалланган Жамоа шартномасига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги 2023 йил 17 майдаги 1 сонли баённомасини тасдиқлаш, 2023 йил учун меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича келишувни қабул қилиш юзасидан қарор қабул қилинди. Шунингдек комбинат маъмурияти ва касаба уюшмаси Кенгашининг масъул раҳбарлари томонидан корхона бўлинмаларида меҳнат интизомига риоя қилиш ва жамоаларда интизомий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, камайтириш юзасидан қатъий чоралар кўриш, “НКМК” АЖ ва НКМК касаба уюшмаси Кенгаши ва унинг бўлинмалари томонидан ҳар ойда меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси ҳолатини ўрганиш бўйича йиғилишлар ўтказилишини ташкиллаштириш, раҳбар ва мутахассислар билим савиясини тизимли текширилишини йўлга қўйиш, инсон омили аралашувига йўл қўймаслик мақсадида тест синовларининг электрон шаклини жорий қилиш ва бажарилишини назоратга олиш, шахталарда ишловчи ишчи-ходимларнинг меҳнат шароитларини ва ўзига хос ишлаб чиқариш омилларини ҳисобга олган ҳолда якка тартибдаги ҳимоя воситаларидан (махсус кийим-бош, оёқ кийим) фойдаланиш муддатлари меъёрларини қайта кўриб чиқиш ва акциядорлик жамияти раҳбариятига тегишли хулоса тақдим этиш, Жамоа шартномасига киритилган ўзгартириш ва қўшимчаларни амалда тўғри тадбиқ этиш, унинг мазмунини ишчи-ходимларга тушунтириш учун кўлланма ишлаб чиқиш ва ишчи-ходимларга 30 майгача етказиш ва “НКМК” АЖ Бошқарув раиси – Бош директори Қ.Санақулов ҳамда музокараларда сўзга чиққанлар билдирган фикр-мулоҳаза, таклифлардан келиб чиқадиган бошқа масалаларга оид вазифалар ижросига йўналтирилган, ўн етти пунктдан иборат кенгайтирилган қарор қабул қилинди.

Низомиддин САДРИДДИНОВ.
Виктор ЯКОВЛЕВ олган суратлар.

“Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ Жамоа шартномасини янги таҳрирдаги Меҳнат кодексига мувофиқлаштириш юзасидан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар бўйича ТУШУНТИРИШ

1. Хизмат сафари даврида кунлик харажатлар учун тўловлар қуйидаги тартибда амалга оширилади: *(Ўзбекистон Республикаси ҳудудида хизмат сафарлари тўғрисидаги Низом)*.

- Ходимнинг овқатланиши учун харажатлари – Базавий ҳисоблаш миқдорининг 0,25 баробари миқдорида, тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим қилинган ҳолда (кунлик умумий овқатланиш корхоналари томонидан тақдим қилинган чеклар).

- Ходимнинг бошқа харажатлари учун – Базавий ҳисоблаш миқдорининг 0,10 баробари миқдорида.

Тушунтириш: Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида Базавий ҳисоблаш миқдори 330 000 сўмни ташкил этади. Хизмат сафарида бўлган ходимга бошқа кунлик харажатлар учун 0,10 (33 000 сўм) Базавий ҳисоблаш миқдоридаги маблағдан ташқари, Базавий ҳисоблаш миқдорининг 0,25 (82 500 сўм) баробари миқдорида овқатланиш учун маблағ ажратилади. Овқатланиш харажатларини тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим этилмаганда, ходимдан 12 фоиз (82 500 сўмдан 12 фоиз 9 900 сўмни ташкил этади) миқдорида жисмоний шахс даромад солиғи ушлаб қолинади.

Овқатланиш харажатларини тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим этилган ҳолатда ҳисоб:

330 000х0,1=33 000 сўм (кунлик харажатлар), 330 000х0,25=82 500 сўм (овқатланиш харажатлари). Жами тўловга: 33 000+82 500=115 500 сўм.

Овқатланиш харажатларини тасдиқловчи ҳужжатлар тақдим этилмаган ҳолатда ҳисоб:

330 000х0,1=33 000 сўм (кунлик харажатлар). 330 000х0,25=82 500 сўм–12 фоиз ЖШДС=72 600 сўм. Жами тўловга: 33 000+72 600=105 600 сўм тўлаб берилади.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 28 октябрдаги 798-сонли Қонунига асосан янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси қабул қилиниб, жорий йилнинг 30 апрелидан амалга киритилди.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 253-моддасига асосан ходимнинг ойлик иш ҳақи икки қисмга бўлинган ҳолда тўланади (бўнакда ва қолган қисми миқдорида).

Бўнак – бу, ходимларга ҳар ярим ойда, ойнинг биринчи ярми учун тўланадиган иш ҳақи. Бўнак ва иш ҳақининг қолган қисмини тўлаш ўртасидаги вақт оралиғи 16 кундан ошмаслиги керак.

Бўнак қандай тўланади?

2022-2024 йилларга мўлжалланган Жамоа шартномасига киритилган ўзгартиришларга асосан ойлик иш ҳақи қуйидагича тўланади:

- жорий ойнинг 30-санасига қадар ойнинг биринчи яримида ишлаган вақтга мутаносиб равшда ойлик тариф ставкаси (иш ҳақи) миқдорида ходимнинг банк пластик карточкаларига ўтказиш йўли билан бўнак тўлаш;

- иш ҳақининг қолган қисмини ҳисобот ойидан кейинги ойнинг 15-санасига қадар, лекин ойнинг кейинги ярми тугаганидан кейин 16 кундан кечиктирмай тўлаш белгиланган.

Мисол учун: май ойи учун бўнак 30 майга қадар тўланади, май ойи иш ҳақининг қолган қисми 15 июнга қадар фоиз нисбатида нақд ва нақдсиз кўринишида тўланади.

Бўнак сўммаси қандай ҳисобланади ?

Бўнак сўммасини ҳисоблаш учун ходимнинг иш ҳақини (ойлик иш ҳақи) май ойидаги иш кунлари меъёрига бўлиш (5 кунлик иш ҳафтасида 22 га; 6 кунлик иш ҳафтасида 26 га; сменали иш режимида 15 ёки 16 ва ҳоказо) ва 1 дан 15-санагача ходим ҳақиқатда ишлаган вақтига кўпайтирилади.

Ходим ойнинг 15-санасига қадар тўлиқ ишлаганда 5 кунлик иш ҳафтасида-10; 6 кунлик иш ҳафтасида-12; сменали иш режимида, иш вақтини жамлаб ҳисоблаш жорий қилинганда – ишланган смена (кунлар) сони ҳисобланади.

Меҳнатга ҳақ тўлашнинг ҳар қандай туридан (вақтбай, ишбай ва йўл варақалари) қатъий назар, ҳақиқатда ишлаган вақтни “Иш вақтини ҳисобга олиш табели” асосида ҳисобланади.

Тўлиқсиз ишлаган даврда, мисол учун: агар ходим меҳнат таътилида, касаллик варақасида бўлганда фақат ҳақиқатда ишлаган кунлари учун ойнинг биринчи ярмида бўнак тўланади.

3. Асосий меҳнат таътил кунлари: *(ЎзР МКнинг 217-моддаси)*:

Ишчи ва хизматчилар учун – **24 календарь кун**;

Раҳбар ва мутахассислар учун – **26 календарь кун**.

“НКМК” АЖда кўп йиллик иш стажи учун йиллик қўшимча меҳнат таътили тақдим этилади *(ЎзР МК 220-моддаси)*.

Ходимга НКМК, “НКМК” АЖда ишлаган ҳар беш йил учун давомийлиги **икки календарь кун** бўлган, бироқ жами **саккиз календарь кундан** кўп бўлмаган ҳар йилги қўшимча меҳнат таътили берилади.

Бундан ташқари иш ўринлари аттестацияси натижалари бўйича қўшимча таътил бериш сақланиб қолинади.

Меҳнат таътилининг умумий давомийлиги **56 календарь кунидан** ошмаслиги керак *(ЎзР МКнинг 222-моддаси)*.

Тушунтириш:

Янги Меҳнат кодексига мувофиқ республикамизда энг кам асосий меҳнат таътили давомийлиги 21 календарь кундан кам бўлмаслиги лозим. Навоий кон-металлургия комбинатида ишлаб чиқариш шароитларидан келиб чиқиб, ишчи ва хизматчиларга 3 кун, раҳбар ва мутахассисларга 5 кун асосий таътилга қўшимча равишда белгиланди, яъни асосий меҳнат таътили давомийлиги ишчи ва хизматчиларга 24 кун, раҳбар ва мутахассисларга 26 кунни ташкил этади. Мисол тариқасида ходимга 24 (26) кун асосий таътил + иш стажи учун 8 кундан ортиқ бўлмаган қўшимча меҳнат таътили (ҳар 5 йил стажи учун 2 кун ҳисобида) + иш ўринлари аттестацияси натижалари бўйича (3 кундан 19 кунгача) бериладиган қўшимча таътил тақдим этилади.

4. Ходимларга қуйидаги **ижтимоий таътиллар** берилади: *(ЎзР МК 238-моддаси)*.

- Ходимга никоҳ тузилганлиги муносабати билан – **1 кун**;

- Ходимнинг яқин қариндошининг (турмуш ўртоғи, фарзандлари, ота-она, ака-ука, опа-сингил) вафот этганлиги муносабати билан – **3 кун**.

Мазкур таътиллар ходимнинг ўртача иш ҳақи сақланган ҳолда берилади.

■ Навоий кон-металлургия комбинатининг 65 йиллигига

ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ – ЯНГИ БОСҚИЧДА

Олдинлари “инновация” сўзи кўпчилик учун нотаниш тушунча эди. Хорижий тилдан кириб келиб, қулоғимизга тез-тез чалина бошлаган ушбу атамани қўллай бошладик. Аммо кўп ўтмай – Янги Ўзбекистон ислоҳотлари аввалида ривожлана бошлаган замонавий технологиялар ва билимлар сабаб бугун “инновация” тил луғатимиздаги асосий сўзлардан бирига айланди.

ЯНГИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ЙЎЛИДА

Сўнгги йилларда Президентимиз ва ҳукуматимизнинг инновацион лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этишга қаратилган қатор меъёрий ҳужжатлари қабул қилинганлиги “Навоий кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамияти учун ҳам жуда катта аҳамиятга эга бўляпти.

2018 йилда комбинат тасарруфида ташкил этилган Янги технологияларни жорий этиш инновацион маркази қисқа давр мобайнида яхши натижаларга эришмоқда. Корхонамизда ҳозирги кунда 15 нафар фан номзоди ва 7 нафар фан доктори фаолият кўрсатаяпти. Сўнгги ўн йилда комбинатнинг юксак илмий салоҳиятга эга мутахассислари томонидан яратилган 37 та ихтиро патент билан ҳимояланди. Жумладан, 34 таси Ўзбекистон Республикаси, иккитаси Швейцария ва Германиядаги Патент кооперация тўғрисидаги шартнома бўйича халқаро патент талабномасига мувофиқ бажарилди ҳамда яна бирига Россиянинг Интеллектуал мулк федерал хизмати томонидан берилди. Комбинатимиз мутахассислари кончилик саноати тарихида илк бор “Олтин-мишьякли, ишланиши қийин бўлган сульфидли рудалардан олтин ажратиш усули” мавзусидаги ихтироси учун 2017 йилда БМТ ҳузуридаги Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг олтин медали билан тақдирландилар.

Президентимизнинг 2022 йилнинг 12 декабрида имзоланган “Ўзбекистон Республикасининг фан ва техника, адабиёт, санъат ва меъморчилик соҳасидаги Давлат мукофотларини бериш тўғрисида”ги Фармонига мувофиқ, “Навоий кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамиятининг бир қатор олим ва мутахассислари “Технологик ва ишланиши мураккаб бўлган олтин таркибли маъданларни қайта ишлаш ва ўзлаштиришнинг комплекс технологияларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш” бўйича илмий-амалий ишланмаси учун фан ва техника соҳасидаги биринчи даражали Давлат мукофоти билан тақдирландилар.

ИЛМИЙ ИШЛАНМАЛАР ВА РАЦИОНАЛИЗАТОРЛИК ТАКЛИФЛАР СОНИ ОРТМОҚДА

Комбинатимиз илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларига инвестициялар ҳажми, шунингдек, фаолиятга киритилган истиқболли ишланмалар ва рационализаторлик таклифлари сони бўйича республикада етакчи ҳисобланади. Бизда илмий ва илмий-техникавий ишланмаларни тижоратлаштириш бўйича катта тажриба тўпланган.

Бугунги кунда жамият ривожланишнинг янги моделини изламоқда. Бу ниҳоятда мураккаб жараён. Рационализаторлик фаолияти тажрибаси, унинг ички иқтисодиёт доирасидаги ўрни ва аҳамияти мамлакат иқтисодий ҳаётида давом этаётган ўзгаришлар қанчалик қийин эканлигини яхшироқ тушунишга имкон беради. Рационализация бу – “корхона ва ташкилотлар фаолиятини такомиллаштириш, унинг самарадорлигини оширишга қаратилган янги техник ечимлар” ҳисобланади. Рационализаторлик таклифлари – мазмуни ва миқёси жиҳатидан хилма-хил бўлиб, ходимларнинг индивидуал хусусиятлари, уларнинг лавозими ёки касбий ихтисослигидан қатъий назар, таълим даражасидан келиб чиққан ҳолда ишчи кучининг ташаббускор меҳнат инновацияларига мойиллигини ифодалайди.

Комбинат томонидан “Рационализаторлик фаолияти тўғрисида Низом” ишлаб чиқилган бўлиб, жойларда ташкил этилган рационализаторлар ва ихтирочилар клубларида Низом асосида ишлар олиб борилмоқда. “НКМК” АЖ бўлинмаларида ихтирочилик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш тизими, ёшларнинг техник ижодиётини ривожлантириш дастурлари ишлаб чиқилган бўлиб, ҳар йили 8 та йўналиш бўйича “Энг яхши рационализатор” танлови ўтказиб келинади. 2018-2021 йилларда комбинат мутахассисларининг 582 та рационализаторлик таклифи юзасидан ижобий қарор қабул қилиниб, ишлаб чиқаришга жорий этилган. Амалиётга тадбиқ этилган рационализаторлик таклифларидан 146.5 миллиард сўм иқтисодий самара олинди. Биргина 2022 йилдаги 175 та рационализаторлик таклифларидан 135 миллиард сўмлик иқтисодий самара олиш кўзда тутилмоқда. Аниқ мисолларга таянадиган бўлсак, Марказий кон бошқармасидан тақдим этилган “Маъданни ювиш майдончасининг юқори қатламларида ҳимоя қатламини жойлаштириш” мавзусидаги таклифдан эришилган иқтисодий самарадорлик 15,7 миллиард сўмни, 1-гидрометаллургия заводидан тақдим этилган “Қорақўтон” конининг ишланиши қийин бўлган маъданларини қайта ишлаш технологик схемасини такомиллаштириш” мавзусидаги рационализаторлик таклифидан олинган иқтисодий самарадорлик 8,7 миллиард сўмни ташкил этгани фикримизни тасдиқлайди.

ОЧИҚЛИК ВА КОНСТРУКТИВ ҲАМКОРЛИК САМАРАСИ

Инновацион марказда янги технологияларни жорий этиш бўйича “Рационализаторлик фаолияти портали” рукни остида ягона маълумотлар базаси яратилди. Комбинатнинг ҳар бир ишчи-ходими хоҳлаган пайтда барча рационализаторлик таклифлар, рационализаторлик фаолиятига оид меъёрий ҳужжатлар, “Энг яхши рационализатор” кўрик-танлови натижалари тўғрисидаги маълумотлар билан танишиш имкониятига эга. Бундан ташқари марказимизда ҳар чоракда нашр этиб борилаётган “Ўзбекистон кончилик хабарномаси” илмий-техник журналида республикамиздаги кон-металлургия йўналишидаги илмий мақолалар ва янгиликлар кенг ёритиб борилади.

Марказда ҳар йили ишлаб чиқаришда ечилиши керак бўлган муаммолар “НКМКни Инновацион ривожлантириш дастури”га киритилади. Мамлакатимиздаги қатор нуфузли илмий-тадқиқот ва олий таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик йўлга қўйилган. Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети, Ҳабиб Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти, Минерал ресурслар илмий-текшириш институти, “O’zGEORANGMETLITI” корхонаси ва Россиянинг қатор олий таълим, илмий-текшириш институтлари билан яқин ҳамкорлик йўлга қўйилиб, дастурга киритилган муаммолар ўз ечимини топиб келмоқда.

Инновацион марказ таркибидаги “Техник кутубхона” комбинат ишчи-ходимларини мунтазам равишда техник адабиётларга ва билимларга бўлган талабини қондирмоқда. Барча китоб ва журналларнинг ташкил этилган электрон шакли ходимларнинг иш жойларида керакли бўлган адабиётлардан фойдаланиш, билим даражаларини бойитиб боришига хизмат қилмоқда. Инноваторлар жамиятнинг ижтимоий фаол бўғини сифатида иқтисодий жараёнларнинг динамикасини белгилайди. Комбинат раҳбариятининг уларни янгиликлар яратиш йўлида доимий қўллаб-қувватлаб келаётгани эса кон-металлургия соҳасининг йил сайин ривожланиб боришига салмоқли ҳисса бўлиб қўшилаяпти.

Қаҳрамон ҒОФУРОВ,
“НКМК” АЖ Янги технологияларни жорий этиш инновацион маркази бошлиғи.

■ Бугуннинг гапи

БАРҚАРОР “ЯШИЛ ЭНЕРГИЯ” ИСТИҚБОЛЛАРИ

Охири. Бошланиши 1-бетда

ТРАНСФОРМАЦИЯ: ЗАМОНАВИЙ КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ

Ҳозирда ишлаб чиқариш ва бошқарув жараёнларини тўлиқ рақамлаштириш орқали корхонани замонавий ва рақобатбардош компанияга айлантириш мақсадида асосланган таклифлар бериш бўйича амалий ишлар олиб борилмоқда. Хусусан, молия, харидлар, кадрлар, омборхоналар ва экспортни тўлиқ қамраб оладиган ресурсларни бошқариш ахборот тизимини яратиш бўйича Ўзбекистон бозорида юқори мавқега эга бўлган хорижий ва маҳаллий IT компаниялар билан музокаралар олиб борилиб, улар томонидан яратилган 1C-ERP тизимлари кўриб чиқилди. Корхонанинг трансформациясини жадаллаштириш орқали замонавий корпоратив бошқарув тизимини жорий этиш, моддий-техник, молиявий ва меҳнат ресурсларидан унумли фойдаланиш, шунингдек, геология-қидирув ишларидан бошлаб юқори қўшилган қийматли маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган барча бўғинларда ягона рақамлаштирилган тизим жорий этилади.

Уран хомашёсини қазиб олиш ва қайта ишлаш бўйича жаҳон амалиёти ўрганилиб, энг мақбул тажрибалар Республика амалиётига тадбиқ этилади.

Юқоридаги Президент қарорида “Nurlikum mining Uzbek-French joint venture” масъулияти чекланган жамияти қўшма корхонасидаги Тоғ-кон саноати ва геология вазирлигининг улушини “Навоийуран” давлат корхонасига устав фондида давлат улушини мос равишда ошириш ҳисобига бериш кўрсатилган.

Шу боис, Франциянинг “Orano Mining” компаниясининг тажрибаларини ўрганиш мақсадида 2022 йилнинг сентябрь ойида “Катко” Қозоғистон-Франция қўшма корхонаси, октябрь ойида Франциядаги табиий уран ишлаб чиқарувчи бир қатор завод ва корхоналарга ҳамда “Orano mining” компаниясининг “Centre d’Innovation en Métallurgie Extractive” инновацион марказига ташрифлар амалга оширилди.

2022 йилнинг ноябрь ойида Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, “Навоийуран” давлат корхонаси ҳамда Франциянинг “Orano Mining” компанияси ўртасида уран қазиб олиш ва қайта ишлаш соҳасида ҳамкорликни кенгайтириш бўйича уч томонлама Стратегик ҳамкорлик бўйича келишув имзоланди. Унда “Жингелди” конида тажриба-саноат ускуналарини қуриш, янги объектлар бўйича геология материалларни ўрганиш, уран қазиб чиқаришни ҳамда ишлаб чиқариш даражасини ошириш бўйича техник ҳамкорлик ишчи гуруҳини ташкил этиш, ураннинг илк уран чалаоксиди маҳсулотини ишлаб чиқариш бўйича жами 500 миллион еврогача инвестиция киритишга келишилди.

Бугунги кунда малакали мутахассислар томонидан уранни рудадан ажратиб олиш даражасини 70 фоиздан оширишни таъминлаш ва мураккаб геологик шароитлардаги захираларни қазиб олиш технологик йўналишлари бўйича ўрганишлар олиб борилди. Натижада, корхонанинг мавжуд ва захиралари сўндирилган уран майдонларида қазиб олиш ишлари ҳисоботларини чуқур ўрганган ҳолда корхона мутахассислари томонидан ишлаб чиқилган “Уран конларида бир вақтнинг ўзида захираларни очиш ва қўшимча қидириш усули” қўлланмаси асосида бурғилаш ишлари олиб борилди ҳамда технологик блокларни айрим қисмларида қолдиқ уран захиралари аниқланди. Мазкур аниқланган жойларда технологик қудуқлар қурилиб, уранни қазиб олиш ишлари давом эттирилиши натижасида айрим майдонларда уранни ажратиб олиш миқдори 70 фоиздан 73 фоизга оширилишига эришилмоқда.

Шунингдек, “Аулбек”, “Жанубий-Шарқий Жингелди” ва “Жанубий Букиной” конларида мураккаб кон-геология шароитларини чуқур ўрганиш ва геологик кўрсаткичларга таянган ҳолда аниқ ҳисоб-китоблар асосида технологик катакларда қўшимча сўриб олувчи қудуқлар бурғиланди. Натижада уранни ажратиб олиш миқдори 70 фоиздан 72 фоизга оширилди.

Инсоният энергетика истиқболини айнан стратегик хомашёлар билан боғлаётган шиддаткор замонамизда табиий урандек ноёб қазилма бойликни ишлаб чиқариш ҳажмини оширишни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.

Корхонанинг 2030 йилга қадар ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш трансформация жараёнларининг энг муҳим босқичларидан биридир. Ривожланиш стратегияси - бу белгиланган мақсадларга эришишга қаратилган аниқ чоратадбирлар режаси бўлиб, у турли вазиятларда ҳаракатлар алгоритмларини умумлаштиришда ва корхонанинг муваффақиятга эришишида муҳим аҳамиятга эга.

Мазкур йўналишда АҚШнинг “McKinsey&Company” ва “Boston Consulting Group” консалтинг компаниялари вакиллари билан музокаралар ўтказилди ҳамда компаниялар мутахассислари томонидан берилган тавсиялар асосида шартнома шартларини белгиловчи техник топшириқ лойиҳаси ишлаб чиқилди, ўрнатилган тартибда комплекс экспертизадан ўтказилди. Шу мақсадда тендер ўтказилиб, давлатимиз раҳбари қарорида кўрсатилган талабларга жавоб берадиган халқаро консалтинг ва рекрутинг компаниялари билан музокаралар олиб борилди.

Тендер натижаларига кўра, “McKinsey&Company” ғолиб деб топилди ва корхона ушбу ғолиб консалтинг компанияси билан ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйди.

2022 ЙИЛ КОРХОНА УЧУН САМАРАЛИ КЕЛДИ

Корхонада 2022 йил якуни билан “Агрон”, “Аулбек”, “Шимолий Конимех”, “Шимолий Букиной”, “Жингелди”, “Жанубий Ингичка”, “Нуркон”, “Зиёкон”, “Кўҳнур”, “Арнасой”, “Тувактов”, “Оқсой-1”, “Мингбой” ва бошқа майдонларда геология-қидирув ишларини жадаллаштириш ва фойдали қазилмаларнинг янги захираларини қидириш кўламини кенгайтириш мақсадида 608 минг метр бурғилаш ишлари олиб борилиши ҳисобига уран захираларини 5 минг 406 тоннага ва ресурсларини 12 минг 538 тоннага кўпайтиришга эришилди. Прогнозга нисбатан табиий уран маҳсулоти ишлаб чиқариш йиллик ҳажмлари 100,5 фоизга бажарилиб, ўсиш суръати 101,6 фоизга таъминланди.

Президентимиз қарорида “Навоийуран” давлат корхонаси томонидан уран қазиб олиш ва қайта ишлашни кўпайтириш мақсадида амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари” рўйхатида “Ақтау” конида руда қазиш майдонини қуриш мўлжалланган. Уч босқичдан иборат бўлган лойиҳанинг умумий қиймати 5 млн доллар бўлиб, унинг ташкил этилиши билан жами юзга яқин янги иш ўринлари яратилади. Мутахассис геологларнинг таъкидлашича, “Ақтау” конининг захиралари дастлабки ҳисоб-китобларга кўра, 15 йилга етади. Шунингдек, кондан қазиб олинган уран концентрати корхонанинг 2023 йилда ишлаб чиқариш ҳажмига қарийб икки фоиз ҳисса бўлиб қўшилади.

Албатта қарорда кўрсатиб ўтилган инвестиция лойиҳаларининг рўйхатига мувофиқ уларни амалга ошириш муддатларини, йиллар кесимида лойиҳалар доирасида маблағларни ўзлаштириш бўйича кўрсаткичларни ишлаб чиқиш ва бу ишларни амалга ошириш тартиби ҳам белгилаб олинган. Бу эса ишларни жадаллаштириш ва сифатли амалга оширишга замин ҳозирлайди.

Тараққиётимизнинг янги босқичида маҳаллийлаштириш дастури ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ички имкониятлардан фойдаланиб, ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, янги лойиҳалар эвазига маҳсулот турларини кўпайтириш, импорт ўрнини тўлдириш бу каби маҳсулотларни корхонанинг ўзида ишлаб чиқариш лозимлигини кўрсатмоқда. Ушбу лойиҳаларни ҳаётга татбиқ этилиши нафақат янги иш ўринларни яратиш, қолаверса ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таннархини камайтириш имконини ҳам берди.

Корхонада ўтган йилда маҳаллийлаштириш дастуридаги 6 та лойиҳа доирасида 16,7 млрд сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилиб, режа 106 фоизга бажарилди. Шунингдек, импортни қисқартириш ҳажми 105 фоизни ташкил этди. 2022 йил бошидан саноат кооперацияси асосида маҳаллий корхоналардан харид қилинган маҳсулотлар 481,14 млрд сўмга ёки 2021 йилга нисбатан ўсиш суръати 131,1 фоизга етказилди.

ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК КОРХОНА ИСТИҚБОЛИГА ХИЗМАТ ҚИЛМОҚДА

Давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 21-22 ноябрь кунлари Франция Республикасига расмий ташрифи доирасида Ўзбекистон Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, “Навоийуран” давлат корхонаси ҳамда Франциянинг “Orano Mining” компанияси ўртасида уран қазиб олиш ва қайта ишлаш соҳасида ҳамкорликни кенгайтириш бўйича уч томонлама Стратегик ҳамкорлик бўйича келишув имзоланган эди.

Мазкур келишувга асосан баҳолаш ҳисоботини тақдим этиш ва техник ҳамкорликнинг Йўл харитаси бўйича батафсил ҳаракатлар режасини тузиш учун геологлар, гидрогеологлар, тоғ-кон ва технологик муҳандислардан иборат ишчи гуруҳ тузилди. Ишчи гуруҳи томонидан баҳолаш ҳисоботи, конларни техник аудитдан ўтказиш бўйича тегишли техник ҳамкорлик Йўл харитасини ишлаб чиқиш белгиланган.

Шу муносабат билан жорий йилнинг 8-13 февраль кунлари “Orano Mining” компаниясининг кончи, геолог ва технологлардан иборат ишчи гуруҳи “Навоийуран” давлат корхонасига ташриф буюрди. Асосий мақсад корхонанинг ишлаб чиқариш қувватлари билан яқиндан танишиш ҳамда барча ишлаб чиқариш жараёнларини техник аудитдан ўтказиш бўйича техник ҳамкорлик Йўл харитасини ишлаб чиқишдан иборат бўлди.

Компания вакиллари корхонанинг таркибий бўлинмалари фаолияти билан яқиндан танишдилар. Франциялик мутахассислар корхона фаолиятини юқори баҳолаб, ўзларининг ўрганишлари натижаларига асосан хулосаларини бердилар. Мулоқотлар якунида экспертлар томонидан узоқ ва қисқа муддатга мўлжалланган таклифлар ишлаб чиқилиб, корхонага тақдим этишга келишиб олинди.

Мамлакатимизда хўжалик юритувчи субъектларнинг экспорт салоҳиятини юксалтириш ва ташқи бозорда уларнинг маҳсулотлари рақобатбардошлигини ошириш иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган. Шу асосда ўз маҳсулотини юз фоиз экспортга йўналтирувчи “Навоийуран” давлат корхонасида бозор конъюнктурасини доимий таҳлил этиш, ҳамкорлик доиралари ва экспорт географиясини кенгайтиришнинг аниқ чора-тадбирлари ишлаб чиқилган. Шу кунга қадар Япония, Канада, АҚШ, Жанубий Корея каби давлатларга маҳсулот етказиб бераётган корхона эндиликда янги манзил - Ҳиндистонга ҳам ўз экспорт дарвозаларини очди.

Ҳиндистонни ўзбек халқи билан кўп асрлик маданий, савдо- иқтисодий ҳамда самимий дўстлик ришталари боғлаб туради. “Навоийуран” давлат корхонаси ва Ҳиндистон ҳукуматининг “Атом энергияси департаменти” билан имзоланган шартнома эса ушбу ҳамкорлик алоқаларини янги босқичга олиб чиқди. Шартномага кўра, корхона 2023 йилнинг март ойидан бошлаб табиий уран маҳсулотини Ҳиндистонга экспорт қилишни бошлади.

ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА ЎТИШ ЙЎЛИДА

Давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 14 июлдаги 319-сонли қарорида корхона томонидан бир қатор халқаро стандартларга мувофиқ Интеграциялашган бошқарув тизимини жорий этиш ва халқаро сертификат олиш, уран ишлаб чиқаришнинг барча бўғинларида экологик талабларни, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, сувдан оқилона фойдаланиш, жаҳон стандартларига мос меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлигини таъминлаш механизмини жорий этиш орқали “Экологик менежменти” ва “Меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлигини таъминлаш” тизимлари талабларини тўлиқ жорий этиш белгиланган. Корхона раҳбарияти томонидан бунга қўшимча равишда ISO 9001 “Сифат менежменти” тизимлари талабларини ҳам қўллаш мақсад қилиб олинди. Бунинг учун “CERT INTERNATIONAL” халқаро сертификатлаш органи билан ҳамкорликда жорий йилнинг март ойида сертификатлаштириш аудитининг биринчи босқичи, апрель ойининг сўнгида эса иккинчи босқичи ўтказилди.

Корхона мутахассислари томонидан ушбу халқаро стандартларни жорий этиш мақсадида меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги, атроф-муҳит муҳофазаси ҳамда стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат менежменти тизимлари хизмати томонидан ИБТ ҳужжатлари, “Навоийуран” ДК мақсадлари, контекстлари ишлаб чиқилди.

Аҳамиятлиси, “Навоийуран” давлат корхонаси, халқаро стандартлар ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 талабларига мувофиқ Интеграциялашган бошқарув тизими халқаро сертификатига лойиқ деб топилди.

Маълумки, корхонанинг маҳсулоти бўлган табиий уран тўлиқ экспортга йўналтирилади. Жаҳон бозорида маҳсулотларнинг харидоргир бўлишини таъминлашда халқаро сертификатларнинг аҳамияти жуда муҳим.

МАҚСАДЛИ КЎРСАТКИЧЛАР ОРТИҒИ БИЛАН БАЖАРИЛМОҚДА

Жорий йилнинг 4 ойи давомида маҳсулот ишлаб чиқариш 1,8 трлн сўмни ёки режага кўра 104,3 фоизни, бурғилаш ишлари 107,8 фоизни, маҳсулдор эритмаларни сўриб олиш ҳажми 107,0 фоизни ҳамда уран қазиб олиш 104,2 фоизни ташкил этди.

Экспорт ҳажми кўрсаткичлари эса 134,5 фоизга, инвестиция дастури лойиҳаларини амалга ошириш 100,0 фоизга бажарилиб, 11,46 млн долларлик капитал қўйилма ўзлаштирилди. 2023 йилда маҳаллийлаштириш дастуридаги 16 та лойиҳа доирасида 14,3 млрд сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилиб, прогноз кўрсаткич 103,0 фоизга бажарилди.

Саноат кооперацияси асосида маҳаллий корхоналардан 2023 йилда 525 млрд сўмлик харидларни амалга ошириш белгиланган бўлиб, ушбу вазифанинг бугунги кунгача белгиланган қисми ортиғи билан уддаланди. Импортни қисқартиришнинг мақсадли кўрсаткичлари 4,0 млн долларга ёки прогнозга нисбатан 102,0 фоизга бажарилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2023-2025 йилларга мўлжалланган инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-459-сонли қарорига мувофиқ корхона томонидан 2023 йилда инвестиция дастури доирасида 7 та лойиҳани амалга ошириш ва 61,7 млн доллар миқдорида маблағларни ўзлаштириш кўзда тутилган. Ушбу лойиҳалар доирасида жорий йилнинг ўтган даврида 17,3 млн доллар миқдорида маблағлар ўзлаштирилди. Лойиҳалар доирасида 400 дан ортиқ технологик ускуналар, 45 дан ортиқ транспорт ускуналари, 50 дан ортиқ энергетик ускуналар харид қилинди ҳамда 40 та янги иш ўринлари яратилди.

ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ КОРХОНА ФАОЛИЯТИНИНГ МУҲИМ БЎҒИНИ

Корхонамизда ходимларнинг турмуш тарзи ва меҳнат шароитларини доимий равишда яхшилаш мақсадида уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тизимли равишда амалга ошириб келинмоқда. Зеро, ушбу жиҳатлар кучли ижтимоий ҳимоянинг энг муҳим мезонларидан биридир. Биламизки, чўл шароитида, яшаш жойидан олисда ишлашнинг ўзи бўлмайди.

Айни пайтда бу каби синовларнинг барчасини сабот билан енгиб, қиш изғирин-ю, ёзнинг жазирама иссиғига чидаб, зиммасидаги вазифаларни бажариб келаётган фидойилар меҳнати ҳар қандай таҳсинга муносибдир. Кон ишчиларининг қийинчилик ва ноқулайликларини бартараф этиш мақсадида 2022 йилда иккита, “Зафаробод” кон бошқармаси 1-геотехнологик кони “Аулбек” кон майдонида ҳамда 4-геотехнологик кони “Ақтау” конида ҳар бири 96 ўринга мўлжалланган Ишчилар қўрғончаси бунёд этилди.

Навоий шаҳридаги ногиронлар учун ажратилган ижтимоий уйда истиқомат қилаётган меҳр ва эътиборга муҳтож кўнгилларга шодлик улашилди. Уларга ўндан ортиқ турдаги озиқ-овқат маҳсулотларидан иборат тўпламлар тарқатилди.

Корхонанинг техник ва технологик жараёнларини ташкил этишда малакали кадрларнинг билими, интеллектуал салоҳияти, табиий уранни қазиб олишдан тортиб, ишлаб чиқаришгача бўлган барча жараёнларнинг тизимли ишлаши халқаро миқёсдаги мутахассислар ва соҳавий экспертлар томонидан эътироф этилиб, ижобий фикрлар билдирилмоқда. Албатта, Президент қарори корхона мақсадли кўрсаткичларининг ўсиши, тизимда изчил ислоҳотларнинг олиб борилиши ва инвестицион жозибадорликни янада оширишда дастуруламал бўлиб хизмат қилади.

“Навоийуран” давлат корхонаси жамоаси янги Ўзбекистон равнақи учун мамлакатимизнинг жаҳон уран экспортчилари бозоридаги мавқеини янада мустаҳкамлаш йўлида бор куч ва салоҳияти ҳамда имкониятларини ишга солган ҳолда астойдил фаолият юритмоқда. Бу эзгу мақсад бардавом бўлишига ишончимиз комил.

Жаҳонгир ХАСАНОВ,
“Навоийуран” давлат корхонаси бош директори.

ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИКА БЕЗОПАСНОСТИ

в центре внимания рудоуправления «ГМЗ-1»

Руководство АО «НГМК» уделяет особое внимание вопросам охраны труда и техники безопасности. Не зря приоритетом нашего комбината является - жизнь и здоровье сотрудников над производственными показателями. Для этого на комбинате и его подразделениях обеспечиваются безопасные условия труда и сформирован механизм для поддержания безопасного поведения на производстве.

Социальная политика рудоуправления «ГМЗ-1» направлена на обеспечение достойных человека труда и условий жизнедеятельности. За последние годы рудоуправление значительно изменилось по санитарному и эстетическому состоянию. Отремонтированы производственные и служебные помещения, постоянно ведутся работы по благоустройству и озеленению всех подразделений, на постоянной основе проводится работа по улучшению бытовых условий работников рудоуправления.

В деятельности рудоуправления наблюдается постоянная динамика роста объемов переработки руды и выпуска готовой продукции, а также ввода новых карьеров и объектов производства. В связи с этим соблюдение правил охраны труда и техники безопасности на предприятии является обязательным условием его нормальной работы.

В рудоуправлении “ГМЗ-1” принимаются все меры к тому, чтобы труд работающих был безопасным, на постоянной основе разрабатываются организационные и технические средства безопасности, направленные на профилактику производственного травматизма.

В подразделениях рудоуправления “ГМЗ-1” (завод, карьеры, шахты) систематически проводятся мероприятия, обеспечивающие снижение травматизма и устранение возможности возникновения несчастных случаев.

Однако в результате пренебрежительного отношения со стороны самих рабочих к технике безопасности возможны несчастные случаи. Чтобы уберечься от несчастного случая, нужно тщательно изучать правила техники безопасности и постоянно соблюдать их.

В связи, с этим со стороны отдела по подразделениям РУ «ГМЗ-1» Главного управления охраны труда и техники безопасности Управления АО «НГМК» в подразделениях рудоуправления «ГМЗ-1» ведется мониторинг и контроль документации и состояния рабочих мест, а также технологического оборудования, инструмента и используемых материалов, наличия и применения спецодежды, спецобуви и СИЗ в соответствии установленным требованиям.

Активно действует корпоративный портал по охране труда и технике безопасности АО «НГМК», где представлены нормативно-правовые документы и видеоинструкции по ОТ и ТБ. Для оценки знаний работников по правилам ОТ и ТБ на портале имеется перечень тестовых вопросов по различным специальностям.

Систематические проверки по охране труда и техники безопасности по подразделениям РУ «ГМЗ-1» выявляют замечания, которые устраняются в полном объеме в установленные сроки.

Работа по направлению охраны труда и технике безопасности находится на постоянном контроле и активно продолжается, т.к. наша главная цель - обеспечение безопасности, сохранение жизни, здоровья и трудоспособности работников.

Руслан НОРМУРОТОВ,
ведущий инженер Инновационно-технической службы РУ «ГМЗ-1».

■ Oramizdagi odamlar

Ayol-nozik xilqat! Ammo u dunyoni tebrata olishi mumkin. Mustaqillik yillarida yaratilgan sharoitlar tufayli ayollarimiz hech bir sohada erkaklardan ortda qolmasliklarini isbotlab kelmoqdalar. Ular o‘z imkoniyatlarini turli sohalarda sinab ko‘rmoqdalar. Shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar asrida ilmi zukkoligi, ishbilarmonligi bilan barchani lol qoldiruvchi ayollarning borligi kishini quvontiradi.

INTILGANGA TOLE YOR

Xorazm viloyati Sarimoy qishlog‘ida tug‘ilgan Mive Pashbayeva o‘n nafar farzandli oilada voyaga yetdi. U bolaligidan raqs, sport, rassomlikka qiziqardi. M.Pashbayeva Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvatlash qo‘mitasi Respublika biznes maktabi Zarafshon filialiga o‘qishga kirib, “Buxgalteriya hisobi va audit” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qib, kasb egasi bo‘ldi. Mehnat faoliyatini 2003-yilda Markaziy kon boshqarmasi Tashqi suv ta’minoti birlashgan energoxizmati “Sazakino” maydoni Issiqlik ta’minoti va kanalizatsiya sexida tozalash qurilmasi ichimlik suvini tayyorlash stansiyasi apparatchisi sifatida boshlab, keyingi o‘n besh yilda mazkur sexda kimyoviy tahlil laboranti sifatida davom ettiryapti.

Prezidentimiz tomonidan xotin – qizlarning bilimlarini oshirish yo‘lida keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. M.Pashbayeva hozirgi kunda Urganch davlat universiteti sirtqi bo‘limi 3-bosqich talabasi. Mive tadbirkorlikka ham qo‘l urdi. Yoshligidan gilam to‘qishga qiziqib kelayotgan qahramonimiz ayni paytda shu hunarning ustasi bo‘lib yetishdi.

- Aslida gilam to‘qishning o‘ziga xos tarixi, madaniyati bor. Bu, bizlarga ota-bobolarimizdan qolgan meros. Sevimli hunarim bilan shug‘ullanib, charchoq nimaligini bilmayman. Kelajakda to‘qiyotgan gilamlarimni sifatini yanada yaxshilash niyatidaman, - deydi M.Pashbayeva.

Quvonarlisi, Mevi joriy yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimida mehnat qilayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan “NKMK oltin ayoli” ko‘rik-tanlovi g‘olibi ham bo‘ldi. U Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat uyida ushbu tanlovning hududiy saralash bosqichida 12 nafar eng zukko va iste’dodli xotin-qizlar orasida “O‘zimni tanishtiray”, “Ana shunday ishlaymiz”, “Agarda men boshliq bo‘lganimda” kabi shartlardagi chiqishlari bilan barchada katta taassurot qoldirib, oliy o‘rinni egallagan edi.

Ko‘rik-tanlovning Navoiy shahrida o‘tkazilgan final bosqichida ham oliy o‘ringa loyiq topildi. Darvoqe, inson orzu qilib astoydil intilsagina, istagi o‘z ro‘yobini topadi.

- Bolaligimda turli ko‘rik-tanlovlarda qatnashganim ulg‘ayganimda ham o‘z samarasini ko‘rsatdi. Rahbariyat “NKMK oltin ayoli” ko‘rik-tanlovini tashkil qilgani uchun minatdorchiligimni bildiraman. Har bir insonning yutug‘ida oilasi va hamkasblarining hissasi bo‘ladi. Demak, yutuqlar ham barchamizniki, - deydi kulib M.Pashbayeva.

Gulshan RUSTAMOVA,
Markaziy kon boshqarmasi
Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi muxbiri.

■ Tarix va ma’naviyat

ASRLAR SADOSI MUJASSAM MASKAN

Har bir millat va elatning o‘z tarixi bor. Tarix zamirida esa milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom tuyg‘usi mujassamdir. Muzeylar xalqimizning boy madaniy merosini avaylab-asrab o‘rganish, dunyoga ko‘z-ko‘z qilish bilan millatning ma’naviy-ma’rifiy kamolotida va yosh avlodning har taraflama yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida alohida o‘rin tutadi.

Bugungi zamonaviy muzey – bu, aynan ma’lum bir hududning madaniyati va tarixini o‘zida aks ettiruvchi noana’naviy muassasadir. Markaziy kon boshqarmasi O‘quv markazining o‘quv-uslubiy xonasi (“Qizilqum sahrosini o‘zlashtirish tarixi muzeyi”) o‘tmishning chinakam moddiy in’ikosidir. Bu yerda Qizilqumning bir necha ming yillik noyob tarixiy va tabiiy obyektlaridan olib kelingan ashyolar, o‘lka flora va fauna dunyosi, yer osti boyliklari namunalari, sanoat korxonalari maketlari, qisqacha aytganda, sahroning rang-baranglikni o‘zida jamlagan sehrli dunyosi namoyish qilingan. Muzey 1983-yilda siyosiy maorif xonasi sifatida tashkil topgan. 2003-yilning 22-sentabrida NKMK MKBga qarashli o‘quv-uslubiy xonasi (muzey) maqomiga ega bo‘ldi va bepul xizmat ko‘rsata boshladi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda moddiy-ma’naviy meros, xalqimizning azaliy urf-odatlari, an’analari va qadriyatlariga bo‘lgan munosabat butunlay yangicha tus oldi. Bugungi kunda muzeylar nafaqat osori-atiqalarni saqlovchi va namoyish qiluvchi, balki yosh avlodni vatanparvarlik, g‘oyaviy-ma’naviy kamolot va estetik ruhda tarbiyalash maskani hamdir.

O‘quv-uslubiy xonamizda arxeologiya, poleontoliya, etnologiya, numizmatika, mineralogiya, sport, hudud tabiati va sanoat korxonalariga oid eksponatlar mavjud. Dastlabki davrda eksponatlarning umumiy soni 155 tadan iborat bo‘lsa, bugungi kunda 2050 taga yetgan. Jumladan, poleontologiya ekspozitsiyasidan tarixiy ahamiyatga ega qadimgi qurib qolgan dengiz atrofidan topilgan dinazavr suyaklari, toshbaqa toshi bo‘laklari, akula va dinazavr tishlari, tosh qotgan daraxt qoldiqlari joy olgan. Bu eksponatlar Qizilqumning noyob tarixiy va tabiiy obyekti Jaraquduq darasidan olib kelingan bo‘lib, chet el olimlari bilan hamkorlikda o‘rganilib, bu eksponatlarga 90-100-million yil deb yosh berilgan.

Qizilqumning qoq o‘rtasida joylashgan Boxontog‘ tizmasidan geologlar va arxeologlar ishlov berilgan feruzaviy qadimiy bezaklarni topdilar. Bu, tosh davriga mansub odamlar nafaqat ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganligi, balki qadimda metallurgiya va zargarlik ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Bunday noyob tarixiy-madaniy yodgorliklar arxeologiya ekspozitsiyasida namoyish qilingan.

Qizilqum mintaqasida gigant tog‘-kon sanoati korxonasi qudratining yildan-yilga o‘sishi yosh mutaxassislarning sohaga oid yuqori bilim va malakasini talab qilmoqda. Muzeyning “NKMK tarixi” bo‘limi yoshlarga korxona haqida dastlabki ko‘nikma va ma’lumotni olishlariga yordam berayapti.

Muzeyning etnografiya fondi mazmun va mohiyati bilan juda boy va unda o‘lkamizda istiqomat qilayotgan o‘zbek, qozoq va slovyan xalqlarining turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari haqida to‘liq ma’lumot olish mumkin. Hudud tabiati ekspozitsiyasidagi hayvonot va o‘simliklar olami barchada birdek qiziqish uyg‘otadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha muzeylarga tashrifchilarning 70-80 foizini yoshlar tashkil etadi. O‘tgan 2022-yilda O‘quv uslubiy xonamizga 7000 nafarga yaqin yoshlar tashrif buyurishdi. Xulosa qilib aytganda, tashkil topganligiga 40 yil to‘layotgan muassasaga tashrif buyurgan yurtimiz aholisi va xorijiy mehmonlar o‘lkamiz tarixi, tabiiy boyliklari, tabiati haqida keng ma’lumotlarga ega bo‘lmoqdalar.

Nargiza ACHILBAYEVA,
MKB O‘quv markazining o‘quv-uslubiy xonasi mudirasi.

■ Лето-2023

Впереди каникулы

Работа детских оздоровительных лагерей ежегодно начинается задолго до их открытия.

К лету-2023 года горно-металлургический комбинат подошел ответственно и основательно. Уже с начала июня для детей работников НГМК широко распахнут двери 6 загородных («Сармиш», «Болажон», «Келажак», «Пахлавон», «Сугдиёна», «Зарафшон»), 3 городских («Юлдуз», «Табассум», «Булбулча»), 2 лагеря труда и отдыха для старшеклассников («Маъшал», «Ёшлик»), а также 2 лагеря для детей из малообеспеченных детей: в Нуратинском районе «Нурли диёр» и ДОЛ «Саримай» в районе Тупроккала Хорезмской области. Летний сезон оздоровления детей продлится до середины августа.

В 13 лагерях полноценно отдохнут более 12 тысяч детей работников АО «НГМК», ГУ «Фонд НГМК» и ГП «Навоиуран». В том числе 1000 благотворительных путевок будут выделены детям семей из «Темир дафтар», «Аёллар дафтари», обществ слепых, глухих и др.

Дети будут жить интересной разнообразной жизнью, наполненной увлекательными и полезными делами. Хочется верить, что нашим ребятишкам надолго запомнятся дни, проведенные в ДОЛ!

С.АСАНОВА.

■ 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

BOLA KULSA, OLAM KULADI

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni dunyo bolalari uchun eng beg‘ubor va quvonchli bayram hisoblanadi. Zero, bolalar tabassumlari bilan insonlar qalbida hayotga, yashashga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadilar. Ko‘zlarida ezgulik va mehr balqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldirg‘och misoli.

Ushbu kunning o‘z tarixi bor. Bu kunni aynan 1-iyun sanasida nishonlash taklifi 1925-yil Jenevada ilgari surilgan va 1950-yildan esa Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida butun dunyoda Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Mazkur sananing asosiy mohiyatlaridan yana biri uning bayrog‘ida o‘z ifodasini topgan. Unda yer shari barchamizning umumiy uyimiz hisoblansa, atrofidagi bolalar esa baxt-saodat uchun birlashganidan dalolat beradi. Yozning birinchi kuni dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida kelajagimiz egalari uchun turli konsertlar, ko‘rgazmalar, sayillar, sport musobaqalari o‘tkaziladi. Istirohat bog‘lari bolalarning tabassumlari bilan go‘yoki mo‘jizalar dunyosiga aylanadi. Mamlakatimizda ham ushbu bayram har yili dillarda quvonch ila nishonlanadi. Sababi O‘zbekiston – bolajon yurt, xalqimiz esa azaldan bolajon xalq. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston qo‘shilgan ilk xalqaro shartnomalar qatorida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so‘ng aynan Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya turishi ham buning yaqqol isbotidir.

Bu bayram ona yurtimizda o‘ziga xos tarzda nishonlanadi. Zero, o‘zbek millatiga xos nodir ma’naviy qadriyatlar sarasidan bo‘lgan bolajonlik, oilaparvarlik, mehr-muruvvatlilik fazilatlari alohida ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushi paytida ota-onasidan yetim qolgan, uy-joyi vayron bo‘lgan, yaqinlaridan ajralgan yuz minglab yetimlar O‘zbekiston bag‘rida mehr-shafqat ko‘rdilar. Dono xalqimiz o‘zining bir burda nonini ana shu bolalar bilan beminnat baham ko‘rdi.

Mustaqillik yillarida yosh avlod kamoloti, ta’lim-tarbiyasi yo‘lida hukumatimiz, shaxsan Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar ijrosi bilan qad rostlayotgan zamonaviy oliy o‘quv yurtlari, litsey, umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida olib borilayotgan uzluksiz ta’lim jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy savodxon, har tomonlama barkamol, o‘z yurtiga munosib farzand bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda. Muqaddas dinimizda ham bu borada talaygina ko‘rsatmalar berilgan. “Ota bolaga go‘zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi”.

Boshqa bir hadisi sharifda ham bolalar va oilalarni yaxshilik qilishga o‘rgatish hamda ularda chiroyli xulqni kamol toptirish zarurligi xususida ta’lim berilgan. U zoti alayhissalom: “Bolalaringizga va oilalaringizga yaxshilik qilishni o‘rgatingiz va ularni odobli etib tarbiyalangiz”, - deganlar.

Mamlakatimizda ushbu kunda bolalar uchun ko‘plab tadbirlar, bayram tomoshalari uyushtiriladi. Markaziy istirohat bog‘lari o‘yingohlari bolalarni xursand qilish uchun tayyorlangan barcha imkoniyatlar bilan ularni o‘z bag‘rini ochib kutib oladi.

Mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo‘lgan bolalarimiz mehr bilan qurshab olinayotganligini Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimidagi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari, zamonamiy madaniyat muassasalari to‘garaklari, sport saroylarida o‘g‘il-qizlarimizning jismonan va ma’nan barkamol insonlar bo‘lib yetishishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Darvoqe, tabiatning xushmanzara, go‘zal go‘shalarida joylashgan kombinat oromgohlari respublikamizning eng namunali bolalar sog‘lomlashtirish maskanlari sifatida e’tirof etib kelinmoqda.

Bolalarga sovg‘a-salom ulashiladi. Shukrki, yurtimizda e’tibordan chetda qolgan bolaning o‘zi yo‘q. Barchaning ko‘nglida bolalarga mehr-muruvvat mujassam. Bolalar bayrami quvonchlarga to‘lsin, ularning beg‘ubor qalblari yayrab-yashnayversin.Zero, bola kulsa, olam kuladi, ona yurtimiz yanada gullab yashnaydi.

Nilufar RO‘ZIYEVA,
SHKB axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi inspektori.

■ Bilib qo‘ygan yaxshi

TANDIRDA YOPILGAN NON – SHIFO

Bel og‘riydimi yoki tizza-bo‘g‘imlar bezovta qiladimi, tandirdan uzilgan va hali sovimagan butun issiq nonni toza matoga o‘rab og‘rib turgan sohaga bog‘lash lozim. Nonning issig‘i tarqashi bilan, qora qo‘chqor dumbasini kuydirmasdan xom holatda surtish darkor. Bu muolaja oyoqlar toliqishi va tizzalardagi og‘riq bezovta qilishdan xalos etadi.

OLMA YUZ TERISINI MAYINLASHTIRADI

Agar yuz terisi mayin va silliq bo‘lishini xoxlasangiz, olmali niqoblardan foydalaning.

Buning uchun o‘rtacha kattalikdagi bir dona olma po‘stidan tozalanadi. Mayda tishli qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Olmali bo‘tqaga 1 oshqoshiq zaytun yog‘i solib aralashtiriladi. Yuz terisiga surtiladi. 15-20 daqiqadan so‘ng yuz illiq suvda chayiladi. Muolaja haftada 2-3 bor takrorlab turiladi.

GIJJALARNI PIYOZ DAMLAMASI MAG‘LUB QILADI

Gijjalar organizmni zaharlab, immunitet tizimini ishdan chiqaradi. Bunday zararkunandalarni yo‘q qilish uchun esa piyoz damlamasini qo‘llashingiz mumkin. Kechasi yotishdan oldin o‘rtacha kattalikdagi piyoz tozalanib, mayda bo‘laklarga bo‘linadi. Uning ustidan bir stakan qaynatilgan iliq suv quyiladi. Idish og‘zi mahkamlanib, ertalabgacha qoldiriladi. Nahorda damlamani suzgichda suzib, och qoringa ichish kerak. Muolajani 5 kun bajarish lozim, gijjalar zug‘umidan qutulasiz. Damlamani har kuni yangilash kerak. Agar gijjalar yo‘qolmaganini sezsangiz, muolajani takrorlash mumkin.

SARIMSOQPIYOZ YAXSHI SHIFODIR

Kechasi yotishdan oldin 5 dona maydalangan sarimsoqpiyoz bo‘lagining ustiga yarim litr qaynagan suv quyiladi va qopqoq bilan yopiladi. Ertalab dokadan suzib olinadi. Ushbu damlama bir kunda 2 mahal bir stakandan ichiladi.

Bu damlama nafaqat prostata bezi yallig‘lanishini davolashda, balki qon aylanishini ham yaxshilaydi. Muolaja har uch oyda 10 kundan bajariladi.

TISH OG‘RIG‘IGA MARMARAK (SHALFEY) MALHAM BO‘LADI

Maydalangan 1 qutulasiz marmarak (shalfey) idishga solinib, ustidan 1 stakan suv quyiladi va past olovda qaynatiladi. Damlama qaynagandan so‘ng olovdan olinadi va 1 soat tindiriladi. Biroz iligandan keyin damlama bilan har yarim soatda og‘iz bo‘shlig‘i chayiladi.

OLMA VA POMIDOR – O‘PKAGA BO‘LAR MADOR

Olma va pomidor ovqatlanish ratsioniga kiritilganda, o‘pka xastaliklari (ayniqsa sil) ga bo‘lgan moyillik 40 foizgacha kamayar ekan.

Bu mahsulotlar ayniqsa chekishga ruju qo‘yganlar uchun juda foydali. Chunki bu mahsulotlar tarkibidagi aminokislotalar o‘pkani tozalash xususiyatiga ega. Ular o‘pkaning ko‘proq kislorod qabul qilishiga ko‘maklashadi.

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS: “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
“Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Adiba AXMEDOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog‘oz bichimi A2. 10800 nusxada chop etildi.
Buyurtma № 296.
2023-yil 31-may 17:00 da
chop etishga topshirildi.